

O’QUVCHILARGA SHARQ MUTAFFAKIRLARI VA PEDAGOG OLIMLARINING BOLA TARBIIYASI TO’G’RISIDAGI FIKRLARINI DARSDAN TASHQARI FAOLIYAT JARAYONIDA RIVOJLANTIRISH

Hamdamova Shahnoza Muxiddin qizi
Buxoro davlat pedogogika instituti talabasi

Annotasiya: Ushbu maqola o’quvchilarga sharq mutaffakirlarining va pedagog olimlarining bola tarbiyasi to’g’risidagi fikrlarini darsdan tashqari faoliyat jarayonida rivojlantirishga qaralgan. Bunda asosan ta’lim tarbiyaning oiladagi ro’li olimlarimiz aytib o’tgan fikrlar orqali tushuntirib o’tilgan. Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Kaykovus, Alisher Navoiy kabi mutaffakirlarning asarlari o’rganib, ular tahlil qilingan.

Kalit so’zlar: sharq mutaffakirlari, pedagog olimlar, ta’lim-tarbiya, farzand tarbiyasi, ta’limning mohiyati.

Sharq mutaffakirlarining merosida ta’lim - tarbiya masalalari muhim o’rin egallaydi. Ayniqsa, ular oila va oilada farzand tarbiyasiga katta e’tibor berganlar. Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Kaykovus, Alisher Navoiy kabi mutaffakirlarning asarlarida oilada bola tarbiyasi masalalari va ularni hal etish yo’llari ko’rsatib berilgan. Abu Nasr Farobiyning fikricha bola tarbiyasi bir maqsadga qaratilgan holda olib borilmog’i va u aqliy va axloqiy tarbiya birligidan iborat bo’lmog’i lozim degan xulosaga kelgan. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim-tarbiya berish masalalari Abu Ali ibn Sino merosida yoritilganini ko’rishimiz mumkin. Beruniy ota –onalarning bolalari bilan birga harakat qilishlari, turli o’yinlar uyushtirishlari, ular bilan o’zaro suhbatlar o’tkazishlari maqsadga muvofiq deb maslahat beradi.

Beruniy tarbiyaning maqsadi va vazifalari haqidagi, shaxsning rivojlanish to’g’risidagi fikrlarining zahirida insonparvarlik g’oyasi yotadi. U har bir ota –ona o’z farzandlariga ana shu g’oyani singdirishi zarur degan xulosaga keladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar hayotini muhim uyushtirish, ularni vaqtdan to’g’ri va unumli foydalanishning asosiy garovi ekanligini ota – onalar o’z farzandlariga o’qtirishlari lozim. Bola tarbiyasi masalalari bo’yicha Abu Ali ibn Sino “Tadbir almanozil” nomli asarini yozgan. Unda olim ota – onaning bolalarni tarbiyalashdagi vazifalarini yoritilgan. Asarda oilada onaning vazifasi va burchiga, oila munosabatlariga to’xtalar ekan, ayniqsa ota –onalarning oilada mehnatsevarligi bilan farzandlarini ham kasb va xunarga o’rgatish borasida muxim fikrlar bayon etadi. Yusuf Xos Xojib “Qutadg’u bilig” asarida oilaviy maishiy turmush muammolariga ham katta e’tibor beradi. Ota – onalar nazoratda bo’lgan bolaning ma’suliyat hissi rivoj topadi. Shu sababli ham bola

tarbiyasida ota –onaning mavqeyi alohida ahamiyatga egadir. Ular tanlagan to‘g‘ri yo‘l farzandlarining kelajakni, kamoloti uchun psixologiyasida muhimdir.

Mirzo Ulug‘bekning qarashlarida bolaning bilim olishga bo‘lgan qiziqishi havasini oshirishda u tarbiyalanayotgan muhit muhim o‘rin tutadi. Kaykovus “Qobusnoma” pandnomasida o‘z farzanding sening haqingda qanday bo‘lishini istasang, sen ham ota –ona haqida shunday bo‘lg‘il deb yoshlarni ota –onasini hurmat qilishga e‘zozlashga, mehr –oqibatli bo‘lishga da‘vat etadi. Bola tarbiyasi masalasi buyuk mutafakkir Alisher Navoiy merosida ham munosib o‘rin egallaydi. U o‘zining qator asarlarida ta‘lim –tarbiya masalalari umuminsoniyg‘oya ekanligini ta‘kidlaydi. Ya.A.Komenskiy o‘zining “Onalar maktabi” kitobini maktabga tayyorlash bobida, shunday yozadi, barcha insonlar bajaradigan ishlar, ma‘lum bir tayyorgarlikni talab qiladi.

Komenskiy ota –onalar uchun quyidagi vazifalarni ko‘rsatadi:

1. Bolalarda maktabga borganda o‘z tengdoshlari bilan o‘qigan va o‘ynagan xursandchilik hissini tug‘dirish;
2. Bolalarni maktabdagi ta‘limning mohiyatini tushuntirish, maktabdagi faoliyat turlari bilan tanishtirish;
3. Bolalar bo‘lajak o‘qituvchilarga nisbatan hurmat va ishonchni shakllantirish. Ta‘lim jarayonida bola imkoniyatlarining namoyon bo‘lishi ma‘lum darajada nasliy omillar bilan ham bog‘liqdir.

Bolalar o‘z temperamenti xususiyatlariga ko‘ra ham bir –birlaridan ajralib turadilar: xushchaqchaq, sergap, quvnoq, xayotning o‘zgaruvchan sharoitlariga tez moslasha oladigan bolalar sangvennik tipreraimentga mansub; qo‘shimcha noxush kayfiyatda yuradigan, ta‘sirchan, kamgan, sust bolalar melanxolik temperamentga kiradilar; xotirjam, befarq, kamharakat, nutqi sust bolalar –flegmatik; jaxldor, betoqat, serzarda, xarakatchan bolalar –xolerik hisoblanadilar. Bolalar kattalarning yordamiga muxtoj bo‘lishiga ham qarab bir –birlaridan farq qiladilar. Ba‘zi bolalar biror xatti-harakatni bajarishni bir necha marta ko‘rsatish, tushuntirish kerak. Bolalar o‘zlarini qiziquvchanlik, aqliy faolliklariga qarab ham bir – birlaridan ajralib turadilar.

Bolalarning maktabga psixologik tayyorgarligi keng va mukammal bo‘lib rivojlangan bo‘lishi darkor. Bolalarga qanchalik yaxshi bilim bersak, o‘ylaymizki ular kelajakda Vatanga sadoqat ruhida, yetuk inson bo‘lib yetishadilar. Demak, tarbiyachi bola shaxsida axloqiy his –tuyg‘ularni tarbiyalash uchun hamma vosita va metodlarni qullasa, yaxshi xulq namunalarini o‘rgatish ancha oson kechadi. Bolani maktabga tayyorlashda tarbiyani har tomonlama jumladan ma‘naviy axloqiy, aqliy estetik, jismonan va mehnat tarbiyalarini birgalikda olib borish yaxshi samara beradi.

Ma‘naviy tarbiyani bolaga o‘tmishda Vatan ravnaqi, el –yurt tinchligi va faravonligi yo‘lida kurashgan xalq qahramonlari haqida gapirib berish, mustaqillik, qadriyat va an‘analarimizni o‘rgatish orqali singdirish mumkin. Oilaviy tarbiya

jarayonida shaxsning bir qator axloqiy jihatlari shakllanadigan, boshqa harch qaysi tarbiya ob’kti oiladagidek yuqori natija bermaydi. Kelajak avlodga estetik tarbiya berishda ham oilaning muhim o’rni bor. Oila davrasida qo’shiqlar kuylanishi, biror ertak yoki asarni oila davriasida o’qish, birga spektakl va kino ko’rish va tahlil qilish va hokazolar bolani estetik tarbiyasini shakllantirishdagi jihatlardir. Bola hayotida mehnat tarbiyasi muhim sanaladi. Mehnat bolalarda uyushqoqlik, diqqat, saramjom – sarishtalikni tarbiyalash, shuningdek maqsadga erishishda sabot va matonat kabi iroda xususiyatlarini rivojlantirish vositasidir. Bola hayotining kun tartibi, odatda sog’lom bola kasalmand va zaif bolaga nisbatan maktab kun tartibiga va butun dars davomida o’zida jo’sh o’rib turgan g’ayratlarini tiyib jim o’tirishga tezroq ko’rinadi. Bolani maktab kun tartibiga tayyorlashda, uning sog’ligini mustahkamlashda ertalab ma’lum vaqtda o’rindan turish, ovqatlanish va uyquga yotishga aniq rioya qilinishi kerak.

Komil inson tarbiyasida o’zidan o’lmas meros qoldirgan ajdodlar xazinasidan foydalanish bugungi kunning vazifalaridandir. 1-prezidentimiz I.A.Karimov “Buyuk maqsad yo’lidan og’ishmaylik” (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o‘n ikkinchi sessiyasidagi) nutqida ta’kidlagan: “Xalqimizning tayanchi ma’naviy merosning o’zi bir katta xazina. Bu xazinadan oqilona foydalanish lozim. Ajdodlar vasiyatiga sodiq va munosib bo’lmog’imiz kerak”. Darhaqiqat, ajdodlar merosi o’zligimiz, ma’naviyatimiz, aslimizdir. Tarbiya muammolari, komillik va inson kamoloti masalalarini o’z asarlarida dasturilamal qilgan ajdodlar ijodiga to’xtalsak. Hadisshunos olimlar ichida eng kuchlisi Imom al-Buxoriydir. Uning 20 dan ortiq katta va kichik kitoblari mavjud bo’lib, ular orasidan “Al-jome’ as-saxix” alohida o’rinda turadi. Bu shoh asar ahamiyati jihatidan Qur’ondan keyingi ikkinchi diniy manba deb e’lon qilingan. Imom al-Buxoriy o’z asarlarida axloq-odob haqida fikr yuritarkan, odamlarni ota-onani e’zozlashga, ular oldidagi o’z burchlarini mukammal ado etishga da’vat etadi. Inson sifatleri haqidagi qarashlarida jaholat kishiga o’lim keltiruvchi fojea deb qaraladi. U odamlarni to’g’ri so’zli bo’lishga, va’daga vafo qilishga chorlaydi.

Munofiq kishining uchta belgisini ko’rsatadi, ular: yolg’on gapirish, va’daga vafo qilmaslik va omonatga xiyonat qilishdan iboratligini aytadi. U insonning kuch-qudratini jismonan paxlavonlikda emas, balki jahil chiqqanda o’zini tuta olishda, deb hisoblaydi. Oilaviy muhitning barqaror, tinch, oila a’zolarining sog’-salomat, to’q bo’lishi, kichiklarga izzatda, kattalarga hurmatda bo’lish ... kabi umuminsoniy axloqiy qadriyatlar uning asarlarida aks ettirilgan. Hadisshunos alloma at-Termiziy hadislarida odamlarni ahil bo’lishga, jamoaga foyda keltirishga, do’stlik va birodarlikka da’vat etuvchi hadislar ko’p uchraydi. “Barcha musulmonlar o’zaro birodardurlar. Ular hech qachon bir-birlariga yomonlikni ravo ko’rmasliklari kerak. Kimda-kim o’zining musulmon birodariga yordam qilsa, oxiratda Ollox unga yordam qiladi. Kimda-kim o’z birodari hojatini yengillatsa, Olloh ham uning oxiratini yengil qiladi”. Alloma, sog’lom tanda sog’ fikr bo’ladi, degen xalq maqoliga amal qilib, yoshlikdanoq

sogʻliqni saqlashga, vaqtni bekor oʻtkazmaslikka daʼvat etadi: “Ikki narsa borkim, koʻpchilik ularning qadriga yetmaydi; biri sogʻlik, ikkinchi boʻsh vaqt”. Sharq mumtoz adabiyotining buyuk namoyondalaridan biri Muslixiddin Sadi Sheroziy Sheroz shahrida 1184 yilda tugʻildi. Sadining fikricha, oila, bolaning baxti, kelajagi uchun zamin yaratuvchidir.

Oilada asosiy tayanch otadir. U maʼsuliyaatli tarbiyachidir. Ota oʻz bolalarini tarbiyalashi, oʻqitishi, hunarga oʻrgatishi, jismonan chiniqtirishi kerak. Sadining pedagogik qarashicha bola qobiliyatli va kamqobiliyatli boʻlishi mumkin. Qobiliyat oʻz – oʻzidan rivojlanmaydi. Uning rivojlanishi uchun bolani tarbiyalash kerak, tarbiya boʻlmasa, boladagi qobiliyat soʻnadi, tarbiyani 3 asosiy – aqliy, nafosat va jismoniy mehnat tarbiyasiga boʻladi. Adib bolani tarbiyalash vazifasini ularning ota – onalariga, yaʼni oilaviy tarbiyaga kata eʼtibor beradi. Farobiy bilimidan maʼrifatli yetuk odamning obrazini tasvirlar ekan, bunday deydi: «Har kimki ilm xikmatni oʻrganmagan desa, uni yoshligidan boshlasin, sogʻ – salomatligi yaxshi boʻlsin, yaxshi ahloq va odobi boʻlsin, soʻzining uddasidan chiqsin, yomon ishlardan saqlangan boʻlsin, barcha qonun – qoidalarni bilsin, bilimdan va notiq boʻlsin, ilmi va dono kishilarni xurmat qilsin, ilm va ahli ilmdan mol – dunyosini ayamasin, barcha real moddiy narsalar toʻgʻrisida bilimga ega boʻlsin».

Bu fikrlardan Farobiyning taʼlim – tarbiyada yoshlarni mukammal inson qilib tarbiyalashda xususan, aqliy – axloqiy tarbiyada aloxida eʼtibor berganligi koʻrinib turibdi, uning eʼtiqodicha, bilim, maʼrifat, albatta yaxshi axloq bilan bezatmogʻi lozim, aks holda kutilgan maqsadga erishilmaydi, bola yetuk boʻlib yetishmaydi. Ibn Sino bola tarbiyasi va tarbiya usullari haqida qimmatli fikrlarini bildirgan. Ibn Sino bolaning axloqiy tarbiyasi haqida bildirgan fikrlarida uy – roʻzgʻor tutish masalalari xususida ham soʻz yuritadi. Bolani tarbiyalash oila ota – onaning asosiy maqsadi va vazifasidir. Oʻz kamchiliklarini tuzatishga qodir boʻlgan ota – ona tarbiyachi boʻlishi mumkin. Axloqiy tarbiyada eng muxim vositalar bolaning nafsoniyatiga, gʻururiga tegmagan holda, yakkama – yakka suxbatga boʻlish unga nasixat qilishdir.

Ibn Sino bolada axloqiy xususiyatlarni mehnat, jismoniy aqliy tarbiya bilan oʻzviy birlikda shakllantirishni, uni inson qilib kamol toptirishda asosiy omil deb biladi. Yusuf Xos Xojibning uqtirishicha har bir kishi jamiyatga munosib boʻlib kamol topmogʻi kerak. Buning uchun u tugʻilgan kundan bolab zarur tarbiyani olmogʻi lozim. U qobil qizning tarbiyasi haqida fikr yuritar ekan, ularning oʻzlariga xos xususiyatiga eʼtibor berishni taʼkidlaydi.

Farzandlar tarbiyasi nihoyatda erta boshlanmogʻi shart. Shundagina ularning nooʻrin xatti – harakatlariga berilishining oldi olinadi. Mirzo Ulugʻbekning oila muhiti sogʻlom avlodni yetishtirish haqidagi fikrlari shundan iboratki, alloma uqtirishicha, bolaning bilim olishiga boʻlgan qiziqish, xavasini oshirishda u tarbiyalanayotgan muxit

muxim o‘rinni egallaydi. Oilada ota – onalar ayniqsa o‘qimishli ota – onalar o‘z farzandlarining haqiqiy inson bo‘lib kamol topishiga aloxida e‘tibor berishlari lozim.

Alisher Navoiy bolaning voyaga yetishida, kamol topishida tarbiyaning kuchi va qudratiga alohida e‘tibor beradi. Tarbiya natijasida bolaning foydali va yetuk kishi bo‘lib o‘shishiga ishonadi. Yosh bolaning juda kichik yoshidan boshlab tarbiyalamoq zarur. Tarbiya insonga o‘zida yaxshi odat va fazilatlar xosil qilishga yordam beradi. U odam shaxsi kishilar bilan munosabatda, ayniqsa kishilarning bir – birlariga bo‘lgan ruxiy ma‘naviy ta‘sirlari natijasida tarkib topadi deb voyaga yetkazishda asosiy omillardan biri tarbiya ekanligi o‘qtiradi. Voiz Al – Koshifiyning o‘qtirishicha insonni ta‘lim – tarbiya orqali qayta tarbiyalash aqliy qobiliyatni o‘stirish mumkin. Koshifiy o‘zining pedagogik qarashlaricha bolalarda mustaqil fikrlash qobiliyatini o‘stirish masalasiga aloxida e‘tibor beradi. Ota – onalar muallimlardan bu masalaga aloxida axamiyat berishni talab etadi. Bu masalada oilaviy hamda tashqi muxit muxim o‘rin tutadi. Bola to‘g‘ri so‘zli vadaga vafodor, yaxshi xulqli qilib tarbyalanishi kerak.

Jaloliddin Davoniy ota – onaning bolani tarbiyalashdagi axamiyatiga keng to‘xtalgandi. Uning fikricha oila tarbiyasida ota ham, ona ham teng huquqli, teng ishtirok etishi bolaning yaxshi xulq – odob qoidalarini muayyan bir kasbni egallashiga ko‘maklashishi ilm – fan va kasb – hunar egallashining moddiy asosi bo‘lmishoziq – ovqat, kiyim – kechak, kerakli buyum va jixozlarni yetkazib berish uchun jozibalik ko‘rsatishi kerak. Sadi ota – onalarga xarakterini hisobga olgan holda axloqiy tarbiyani bolaning yoshligidan boshlashni tavsiya etadi, xarakter shakllangach, bolaga ta‘sir etmaydi.

XIX asr o‘zbek ijtimoiy va adabiy xayotning yirik vakillaridan biri Komil Xorazimiy o‘z asarlarida ma‘rifat axloqiy kamolot, vatanparvarlik g‘oyalarini olg‘a surdi. U ilm-ma‘rifatning xalq, jamiyat farovonligiga, insonning axloq kamolatida tutgan o‘rni, axloqiy va nafosat tarbiyasini uzviy birligi xaqidagi pedagogik fikrlarini xam bayon etadi. Komil Xorazimiyning fikricha ilm-xunar, ilm-ma‘rifat inson axloqiy kamoloti, ijtimoiy ma‘naviy xayotning rivoji uchun xizmat qilishi kerak. Kamtarlik eskirmaydigan, eng go‘zal insoniy fazilatdir. Bu fazilatlarga ega bo‘lganlar obro‘-e‘tiborli komil insonlardir. Kamtarlik insonni turli noxushlikdan xijolatdan saqlaydi. Shoir tarixshunos, tarjimon va xattot Munis Xorazmiy tilga ko‘p erk bermaslikni maslaxat beradi. Uning ta‘kidlashicha, ortqcha so‘zmonlik kishi boshiga olin o‘rniga qattiq tosh bo‘lib tegishi mumkin. Shoir yomon so‘zli, ozor beruvchi murodlar sifatini tasvirlab, kishilarni jumladan yoshlarni ular bilan xamsuxbat bo‘lmaslikka undaydi. Munis Xorazmiy o‘z asarlarida xalqni adolatli, ongli, bilimli bo‘lishga, jaxolatdan yiroq turishga da‘vat etadi, uning fikricha, adolat sharaf ko‘rki, osoyishtali, xushnutlikdir. U yoshlarni kamtarlik bilan muloqotda bo‘lishga, ularni hurmat qilib e‘zozlashga chorlaydi. Munis Xorazmiyning asarlariga bayon etilgan ta‘lim –

tarbiyaga oid fikrlar faqat u yashagan davr uchun emas, balki hozirgi davr uchun ham qimmatlidir.

Mohlaroyim Nodiraning inson va tabiatiga nisbatan qarashlariga faqat shaxsiy tuyg‘u emas, balki yoshlar tarbiyasida milliy an‘analarning roli haqidagi fikrlari ham namoyondir. Nodiraning tarbiya haqidagi qarashlarida insonparvarlik g‘oyalari-adolat, insof, xalq manfaati muxim o‘rinni egallaydi. Nodira xayotning tub mohiyatini yaxshilik binosini barpo etishdan iborat deb biladi. Uning fikricha, kimki tiriklik chog‘ida yaxshilik bunyod etgan bo‘ladi, o‘zining bu ezgu ishlari bilan o‘zidan keyin hayotda yorqin xotira qoldiradi. Umuman, Nodira o‘z she‘rlarida barkamol insonni ulug‘laydi. Ta‘lim – tarbiyaga oid ko‘p foydali o‘g‘itlarni bayon etdi.

Muxammad Rizo Ogahiy o‘z ijodiy faoliyatini pedagogik qarashlarida nafosat tarbiyasi ham yuqori baholanadi. Ogahiy milliy an‘analarimiz mexmondo‘stlikni go‘zal fazilatlardan biri hisoblaydi. Mehmonga chuqur xurmat bilan qarash, mehmon kutish, kuzatish odobi Ogahiy ijodidan o‘z ifodasini topdi, odamlarni bu fazilatni egallashga da‘vat etdi. Ogahiyning ta‘kidlashicha, insonga do‘st va dushmani ajratib olish xayotda o‘z o‘rnini topib olishda g‘oyat muximdir. Uning fikricha to‘g‘ri so‘z kishilar xayotda qiyinchilik bilan yashasalarda, dunyoning mavjudligini saqlab turadilar, mangu yashaydilar. Ogahiy ta‘lim-tarbiya ilmlarni egallash va tilni bilishda xam muxim ahamiyatga molik ekanligini ta‘kidlaydi. Muxammad Rizo Ogahiy o‘z ijodiy faoliyatida binobarin yoshlarni odamlarni xalq, vatan, jamiyat farovonligi yo‘lida xizmat qilishga da‘vat etdi. U do‘stlikni mehmondo‘stlikni axloqiy go‘zallikni ulug‘ladi. Insonlarni ziyraklikka, to‘g‘ri so‘zli bo‘lishga chorlaydi. Ogahiyning bu fikri o‘g‘itlari hozir ham pedagogik qadriyat sifatida qimmatlidir.

Berdimurod Berdaq Qaraqolpog‘iston xalq shoiri butun ijodi davomida xalqlar tengligi, insonparvarlik, vatanparvarlik, adolat haqidagi g‘oyalarini olg‘a suradi. Berdaq insonning shaxsiy baxti xalq baxti bilan bog‘liq deb biladi. Uning ta‘kidlashicha, har bir odam haqiqiy baxtga erishishi uchun o‘z shaxsiy manfaatini xalq manfaati bilan birlashtirishi, xalq baxti uchun kerak bo‘lsa jonini ham ayamasi kerak. Berdaqning fikricha inson oliy axloqiy sifatlariga, chunonchi, beg‘arazlik, olijanoblik, vijdoniylik, mehnatsevarlik, mardlik fazilatlariga ega bo‘lishi lozim. Berdaq yoshlarning aqliy tarbiyasida maktabning mavqeyi katta ekanligini ta‘kidlaydi. Maktabda bolani yaxshi xulqi atvorli qilib tarbiyalash lozim. Uning fikricha maktabda dars beruvchi muallim o‘z xushmuomalaligi, pok qalbliigi, haqqo‘yligi, o‘z fanini yaxshi puxta bilishi bilan bolalarga o‘rnak bo‘lishi kerak. Berdaq oilaning bola tarbiyasida, muxim o‘rin tutishni aloxida ta‘kidlaydi, oila muxitida ota – onalar bilan bolalar o‘rtasida o‘zaro hurmat bo‘lgandagina tarbiya yaxshi natijalarga erishishi mumkinligini aytadi. Berdaqning uqtirishicha, inson tug‘ilgan kundanoq tarbiyaga muxtojdir, uning ilk tarbiyachilari, albatta ota – onalardir. Berdaqning fikricha barcha

odamlar insonparvar va adolatli bo‘lsa jamiyat gullab yashnaydi. Buning uchun esa, xalqqa ta’lim berish, unda ijobiy xulq-atvorni tarbiyalash lozim.

Markaziy Osiyo xalqlari ilm – fani va madaniyatini jaxon miqyosiga olib chiqqan Markaziy Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotiga munosib xissa qo‘shgan ulug‘ siymolardan biri Mirzo Ulug‘bek. U avvalo yosh avlodning aqliy va ma’rifiy tarbiyasiga katta axamiyat berib, ularni dunyoviy bilimlarini egallashga da’vat etdi. Faqat rivojlangan fan va madaniyat inson tafakkurining komil topishini ta’minlashga ishondi. Allomaning uqtirishicha, bolaning bilim olishga bo‘lgan qiziqishi, havasini oshirishda u tarbiyalanayotgan muxit muxim o‘rinni egallaydi. Oilada ota – onalar ayniqsa, o‘qimishli ota – onalar o‘z farzandlarining xaqiqiy inson bo‘lib kamol topishiga aloxida e’tibor berishlari lozim.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqid tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston
2. Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollari bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti nutqi./Xalq so‘zi gazetasi. 2017 yil yan
3. var; 11-son.
4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajgimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz ”O‘zbekiston” 2017
5. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonuni. Hujjatlar to‘plami. 2017 yil, 6-son, 76-modda
6. Mirziyoyev Sh.M. “Qonun ustuvorligi-inson manfaatlarini ta’minlash taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi” “O‘zbekiston”. 2017
7. R.A. Mavlonova, D. Abdurahimova “Pedagogik mahorat” O‘quv qo‘llanma. T. Fan va texnologiya. 2012 yil
8. S. Nishonova, M. Imomova, R. Hasanov. Pedagogika tarixi. Do‘stlik T.O‘qituvchi 1996 yil.
9. S. Nishonova, M. Imomova, R. Hasanov. Pedagogika tarixi. Darslik. T.O‘qituvchi. 1996 yil.
10. M. Ochilov Muallim qalb me‘mori. O‘quv qo‘llanma. T.O‘qituvchi. 2004 yil.
11. N. Egamberdiyeva. Ijtimoiy pedagogika. Darslik. A. navoiy nomidagi O‘zMKNT. 2009 yil.